



OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MADANIYAT VAZIRLIGI

YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI

O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI

QARORI

**Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'rtasida
"Talabalar teatr studiyalari" ko'rik-festivalini o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son qarori 8-bandining kichik (b) ijrosi, shuningdek, mazkur qarorning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan Teatr san'atini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 18-19-bandlari ijrosi hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi 36-son qarori 2-ilovasi chora-tadbirlar dasturining 7-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi **qaror qiladi:**

"Talabalar teatr studiyalari" respublika ko'rik-festivali (keyingi o'rinlarda – Festival) 2025-yildan boshlab doimiy o'tkazilib borilsin.

1. Quyidagilar:

"Talabalar teatr studiyalari" Festivalini o'tkazish bo'yicha Respublika tashkiliy qo'mita tarkibi **1-ilovaga** muvofiq;

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan "Talabalar teatr studiyalari" Festivalini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

Festivalning barcha bosqichlari o'tkaziladigan joy va muddatlarini belgilash, shuningdek, nizom talablari asosida yuqori saviyada o'tkazilishini tashkil etsin va muvofiqlashtirib borsin;

Festivalning bosqichlarini o'tkazish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik qilsin;

Festivalda g'olib bo'lgan jamoalar to'g'risidagi ma'lumotlarni 10 kun muddatda Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasiga kiritish, shuningdek, yakuniy bosqichida faol ishtirok etgan va g'olib bo'lgan

jamoalarni diplom, sertifikat, statuetka, vaucher, gul hamda belgilangan pul mukofotlari bilan taqdirlasin;

Festivalning respublika yakuniy bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi o'tkaziladigan joyni sahna bezaklari (*gul, shar, ovoz kuchaytirish apparati, sahna chiroqlari va dekoratsiya*) bilan bezab, 2 nafar taniqli san'atkorlar ishtirokida yakuniy konsert dasturini tashkil etsin.

3. Madaniyat vazirligi:

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan "Talabalar teatr studiyalari" respublika Festivaliga teatrlar, madaniy dam olish maskanlari mutaxassislari tomonidan uslubiy-amaliy yordam ko'rsatsin;

Festivalning barcha bosqichlarini o'tkazish jarayonida Hakamlar hay'ati tarkibiga markaziy apparat va hududiy boshqarmalardan soha mutaxassislari ajratsin;

Festivalning barcha bosqichlari o'tkazilishi kunlari xalqimiz e'tirofiga sazovor bo'lgan taniqli aktyorlar bilan uchrashuvlar o'tkazishni tashkil etsin;

Festival o'tkaziladigan kunlari teatr binolaridan bepul foydalanish va texnik vositalar va mavjud kiyim-kechak, dekoratsiyalardan foydalanish uchun shart-sharoit yaratib berishni tashkil etsin.

4. Yoshlar ishlari agentligi:

Tanlovning barcha bosqichlarini o'tkazish bo'yicha Tashkiliy hamda hududiy ishchi guruhlar, shuningdek, Hakamlar hay'ati tarkibiga Markaziy apparat va hududiy boshqarmalardan vakillar ajratsin;

Tanlovning barcha bosqichlari o'tkazilishi jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritishda amaliy yordam ko'rsatsin;

Tanlovda g'olib bo'lgan talaba-yoshlarni sertifikat va diplomlari bilan taqdirlash hamda imkoniyatidan kelib chiqqan holda final ishtirokchilariga har bir jamoaga 1 (*jami 10*) televizor yoki noutbuk sovg'alar bilan rag'batlantirish choralari ko'rsin.

5. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi:

Festivalning final bosqichini teletanlov va tele-shou shaklida efirga uzatish va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tasarrufidagi kanallarda final ishtirokchilari spektakllarini to'liq formatda yoritishda amaliy yordam ko'rsatsin;

Tanlovning barcha bosqichlari o'tkazilishi jarayonlarini tegishli telekanallar orqali yoritishda amaliy yordam berish vazifalari yuklansin.

6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (37-q/q), Madaniyat vazirligi (01-20/02-20) hamda Yoshlar ishlari agentligining (01-07/27)-sonli 2024-yil 7-oktyabrdagi Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida "Talabalar teatr studiyalari" tanlovini o'tkazish to'g'risidagi qo'shma qarori 2025-yil sentyabr oyidan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari S. Buzrukxonov, Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari A. Tadjixanov, Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari D. Kattaxanova va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisining birinchi o'rinbosari X. Nuritdinov zimmlariga yuklansin.

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vaziri**

K. Sharipov

Toshkent sh.
2025-yil 13 - mart
12-018 -son

Madaniyat vaziri

O. Nazarbekov

Toshkent sh.
2025-yil 13 - mart
01-21-14 -son

Yoshlar ishlari agentligi direktori

A. Sa'dullayev

Toshkent sh.
2025-yil 13 - mart
01-04/04 son

**O'zbekiston Milliy
teleradiokompaniyasi raisi**

A. Djurabayev

Toshkent sh.
2025-yil 13 - mart
00-2 -son

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining
2025-yil "13"- 23 12.11/24 son qaroriga

Madaniyat vazirligining
2025-yil "13"- 23 01.11.24 son qaroriga

Yoshlar ishlari agentligining
2025-yil "13"- 23 01.11/24 son qaroriga

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining
2025-yil "13"- 23 01.11.24 son qaroriga
1-ilova

**“Talabalar teatr studiyalari” Festivalini o'tkazish bo'yicha
Respublika tashkiliy qo'mita
TARKIBI**

- | | |
|---|--|
| 1. Buzrukxonov Sarvarxon
Munavarxonovich | – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
o'rinbosari, <i>Tashkiliy qo'mita raisi</i> |
| 2. Tadjixanov Avazxon
Baxadirovich | – Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari |
| 3. Kattaxanova Dilnozaxon
Sobir qizi | – Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi
o'rinbosari |
| 4. Nuritdinov Xayrulla
Bakidjanovich | – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi
raisining birinchi o'rinbosari |
| 5. Kasimov Nodir
Ulug'ovich | – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
boshqarma boshlig'i <i>Tashkiliy qo'mita raisi</i>
<i>o'rinbosari</i> |
| 6. Akramov Abdumalik
Abdumutalovich | – Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini
oshirish markazi direktori |
| 7. Raxmonov Shohzod
Husan o'g'li | – Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini
oshirish markazi bo'lim boshlig'i |
| 8. Maxmudov Axmadxon
Muhammadsaid o'g'li | – Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini
oshirish markazi bo'limi bosh mutaxassisi,
<i>Tashkiliy qo'mita kotibi</i> |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining
2025-yil "13"- D3 12-D/14 son qaroriga

Madaniyat vazirligining
2025-yil "13"- D3 11.21-14 son qaroriga

Yoshlar ishlari agentligining
2025-yil "13"- D3 11-D/14 son qaroriga

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining
2025-yil "13"- D3 14-a son qaroriga
2-ilova

**Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan
"Talabalar teatr studiyalari" Festivalini tashkil etish
va o'tkazish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil oluvchi (*ta'lim yo'nalishi musiqa ta'limi va aktyorlik san'ati bo'lmagan*) barcha talaba-yoshlar o'rtasida **"Talabalar teatr studiyalari"** respublika ko'rik-festivali (bundan keyingi o'rinlarda Festival deb yuritiladi)ni o'tkazish tartibini belgilaydi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

2. Festival mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomondan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish hamda talaba-yoshlarni teatr san'atiga muhabbat ruhida tarbiyalash va ma'naviy kamolotga yo'naltirish orqali oliy ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirishga erishish hamda iqtidorli yoshlarga o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratib berish va rag'batlantirishdan iborat.

III. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

3. Festival Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (*keyingi o'rinlarda tashkilotchi deb yuritiladi*) tomonidan tashkil etiladi. Festivalda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan oliy ta'lim tashkilotlarining talabalardan tashkil topgan teatr studiyalari jamoalari ishtirok etadi.

4. Festivalda ishtirok etish uchun Respublika tashkiliy qo'mitasining xatiga asosan ishtirokchi oliy ta'lim tashkilotining jamoasi A – variantga muvofiq o'tkazish belgilanganda belgilangan muddatlarda ariza berishlari shart, ariza bermagan taqdirda tanlovda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

5. Festivalni tashkil etish va uni o'tkazish Respublika tashkiliy qo'mitasi hamda hududlardagi oliy ta'lim tashkilotlarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari zimmasiga yuklatiladi.

6. Festivalda ishtirok etuvchi jamoalar oliy ta'lim tashkilotlaridagi talaba-yoshlaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

7. Festivalni tashkil etish va o'tkazish III (A) yoki III (B) variantga asosan o'tkazilishi mumkin.

8. **A – variant:** Festival **4 bosqich**da o'tkaziladi.

barcha bosqichlarini o'tkazish muddatlari Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim tashkilotlariga vazirlikning xati orqali ma'lum qilinadi.

9. Festivalning 1, 2-bosqichida Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra har bir guruhdan faqat 1 ta jamoa keyingi bosqich uchun yo'llanmani qo'lga kiritadilar.

10. Hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra Festivalning 3-mintaqaviy bosqichida har bir belgilangan mintaqadan g'oliblikni qo'lga kiritgan 1 ta jamoa hamda tavsiyasi asosida 2-o'rinni (*o'zaro ijro mahorati yaqin kelgan jamoa*) egallagan jamoa final bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishi mumkin.

11. Hududiy, mintaqaviy va respublika bosqichi Hakamlar hay'ati tarkibi Respublika tashkiliy qo'mita tomonidan belgilangan mas'ullardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

12. **B – variant:** Festival **2 bosqich**da ya'ni 1-oliy ta'lim muassasalari bosqichi va 2-respublika final bosqichi shaklida o'tkaziladi.

Bunda, 1-bosqichda teatr sahnasida oliy ta'lim tashkiloti spektaklini namoyish etib (*teatr zalida talaba-yoshlarning tomoshabin sifatida ishtirok etishlari shart*) to'liq video tasvirga oladi va respublika tashkiliy qo'mitasiga fleshkada belgilangan muddatlarda yuboradi.

taqdim etiladigan videoroliklar soni 1 ta, davomiyligi spektakl tugaguniga qadar 10-80 daqiqagacha MPEG-4 Hd formatda bo'lishi shart.

13. Videorolikni suratga olish va montaj jarayonida maxsus dastur hamda uskunalaridan foydalanish ishtirokchi jamoaning ixtiyoriga havola etiladi.

14. Videorolikda yoritilayotgan mavzu nomi ko'rsatilishi mumkin. Ishtirokchilarning, ta'lim tashkiloti nomi ko'rsatilishi va video tasvir paytida aytib o'tilishi qat'iyon taqiqlanadi. Video tasvirda bunday holat kuzatilgan taqdirda ballari bekor qilinadi.

15. Oliy ta'lim tashkilotlari tomondan yuborilgan video tasvirlar Respublika tashkiliy qo'mitasi belgilagan Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan 1 oy davomida ko'rib chiqiladi va keyingi 2-respublika bosqichida ishtirok etadigan 8 ta jamoa ballar ketma-ketligida tanlab olinadi. Hakamlar hay'ati tomonidan ko'rilgan va g'olib deb topilgan spektakllar tashkilotchining rasmiy telegram kanallariga joylanadi. Hakamlar hay'ati chiqargan qarorni muhokama qilishga yo'l qo'yilmaydi.

16. Festival 50 ballgacha baholanadi.

17. Respublika bosqichi oflayn tarzida bo'lib o'tadi va g'oliblar aniqlanadi.

18. Respublika tashkiliy qo'mitasi xulosasiga ko'ra keyingi yillar Festivalni tashkil etish va o'tkazish **III (A) yoki III (B)** variantga asosan o'tkazilishi mumkin.

IV. Oliy ta'lim tashkilotlari talaba-yoshlari o'rtasida o'tkaziladigan “Talabalar teatr studiyalari” Festivali g'oliblari va nominatsiyalarini baholash mezonlari

1-o'rin

Tanlangan asarning badiiy-g'oyaviy talqini va yechimi, sahna bezagi, musiqiy ifodasi, kiyim, rekvizit, dekoratsiya va boshqa vositalardan foydalanish imkoniyati hamda havaskor ijrochi aktyorlarning mahorat darajasi umumiy birlikda ko'rib chiqiladi.

2-o'rin

Sahna asari ijtimoiy hayotimizda sodir bo'layotgan hodisalar, dolzarb muammo va masalalar, ayniqsa yoshlar hayotini aks ettiruvchi mavzuga boy, badiiy jihatdan yaxlit sahnaviy talqinga ega bo'lishi kerak. Spektaklda ko'tarilgan dolzarb muammoning ijobiy yechimiga jamoaning takliflari e'tiborga olinadi.

3-o'rin

Tanlangan asarda xalqimizni boy madaniy merosi, urf-odatlar, an'analari, qadriyatlari, xalq og'zaki ijodiyotining turli namunalaridan foydalanganligi, musiqiy va plastik raqs harakatlarini ijrochilik mahorati inobatga olinadi. Sahna asari, doston, afsona va boshqa janrlari asosida tayyorlangan, sahna qoidalariga moslangan, kompozitsion to'laqonli folklor tomoshasi bo'lishi ham mumkin.

“Eng yaxshi erkak roli uchun” nominatsiyasi

Havaskor erkak aktyorning ijrochilik darajasi, dramatik qobiliyati, xarakterni aks ettiruvchi plastik imkoniyati, nutq madaniyati, ovoz imkoniyatlari, partnyorlarini his qilishi, jamoani spektaklga tortishi umumiy birlikda namoyon bo'lishi kerak.

“Eng yaxshi ayol roli uchun” nominatsiyasi

Havaskor ayol aktyorning ijro mahorati, dramatik qobiliyati, xarakterni aks ettiruvchi plastik imkoniyati, nutq madaniyati, ovoz imkoniyatlari, partnyorlarini his qilishi, jamoani spektaklga tortishi umumiy birlikda namoyon bo'lishi kerak.

“Jamoat ijodkor talabasi” nominatsiyasi

Tanlovda faol ishtirok etgan ijodkor talaba Hakamlar hay'ati hamda tashkilotchilar tomonidan tanlab olinadi va taqdirlanadi.

“Eng yaxshi talabalar teatr studiyasi rahbari” nominatsiyasi

Bunda rahbarning talabalar teatr studiyasi faoliyatini yo'lga qo'yishdagi tashkilotchilik ishlari, oliy ta'lim tashkilotlaridagi iqtidorli yoshlarni izlab topish, sahna asarlarini badiiy va g'oyaviy jihatdan to'g'ri tanlash, sahnalashtirish jarayonida kerakli rekvizitlarni topishda amaliy yordam berish, sahna mutaxassislarini ijodiy jarayonga jalb etish, jamoada etika, o'zaro hurmat

va madaniy tartib o'rnatish, shuningdek, talabalar teatr studiyasida ijodiy muhitni yaratish iqtidori e'tiborga olinadi.

“Eng faol oliy ta’lim muassasasi” nominatsiyasi

Tanlov jarayonlarida etika, o'zaro hurmat va madaniy tartib o'rnatgan hamda oxirgi 2, 3-yil davomida yarim final va final bosqichlarida muntazam faol ishtirok etgan oliy ta'lim tashkilotining “Talabalar teatr studiyalari” jamoasi aniqlanadi.

19. Hakamlar hay'ati tomonidan teatr studiyalari chiqishlarini baholashda quyidagi mezonlarga: jamoalarning badiiy chiqishlari va sahnaviy ko'rinishlarini tayyorlashda o'ziga xosligi, milliyligi, mazmundorligi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga, ular mohiyatini oddiy va xalqchil tarzda ochib berishiga, kiyinish va nutq madaniyati, ijodiy, badiiy hamda voqea-hodisalarni mahorat bilan ijro etishiga e'tibor qaratiladi. Sahnada qo'yilgan asar bundan oldingi yillarda Talabalar teatr studiyalari jamoalari tomonidan sahnalashtirilmagan va professional teatrlarda qo'yilmagan yangi spektakllar hamda yuqori ijro va dolzarbligi hisobga olinib jamoalarga ustunlik beradi. Teatr studiyalari jamoalari tayyorlagan sahna asarlariga 10 daqiqadan 80 daqiqagacha vaqt beriladi.

20. Barcha o'rin va nominatsiyalar bo'yicha g'oliblarni aniqlash Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan hal etiladi. 1-o'rin g'olibi “Talabalar teatr studiyalari” Festivali mutlaq g'olibi deb topiladi. Keyingi yilgi “Talabalar teatr studiyalari” Festivali 1, 2, 3-o'rinni egallagan jamoalar hududida (*kelishuv asosida*) tashkil etiladi hamda 1-o'rinni egallagan jamoa (*1 marotaba*) keyingi mavsum bellashuvlarida ishtirok etmaydi.

21. Hakamlar hay'ati tomonidan belgilangan o'rin hamda nominatsiyalar yuzasidan izoh beriladi. Qabul qilingan qarorni muhokama etishga yo'l qo'yilmaydi.

V. G'oliblarni taqdirlash

22. Festivalning 3-mintaqaviy bosqichida ishtirok etgan jamoalarning har bir ishtirokchi talabalari mehnatga haq to'lashning 1 barobari miqdorida va mas'ul rahbarlari mehnatga haq to'lashning 8 barobari (*daromad solig'i bilan hisoblangan*) miqdorida oliy ta'lim tashkilotining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bir martalik moddiy rag'batlantiriladi.

23. Final bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar Hakamlar hay'ati xulosasi hamda Respublika tashkiliy qo'mita raisi bayonnomasiga asosan nizomda ko'rsatilgan miqdorda rag'batlantiriladi.

24. Oliy ta'lim tashkilotlari talaba-yoshlari o'rtasida o'tkaziladigan “Talabalar teatr studiyalari” Festivalining yakuniy final bosqichida o'rin va nominatsiyalar g'olibi bo'lgan jamoalari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan vazirlikning oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari (*daromad solig'i bilan hisoblangan*) hisobidan quyidagi tartibda:

1) 1-o'rin – BHMning 190 barobari;

2) 2-o'rin – BHMning 140 barobari;

3) 3-o'rin – BHMning 85 barobari;

nominatsiyalar bo'yicha:

- 4) “Eng faol oliy ta’lim muassasasi” – BHMning 35 barobari;
- 5) “Eng yaxshi erkak roli uchun” – BHMning 25 barobari;
- 6) “Eng yaxshi ayol roli uchun” – BHMning 25 barobari;
- 7) “Jamoalar ijodkor talabasi” nominatsiyasi – BHMning 20 barobari;
- 8) “Eng yaxshi talabalar teatr studiyasi rahbari” nominatsiyasi – BHMning 15 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Shuningdek, 1-o‘rin g‘oliblari oliy ta’lim muassasasining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda Xorijiy davlatlardan biriga sayohatlari tashkil etilishi hamda hamkor tashkilotlarning diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanishi mumkin.

25. Festivalning mintaqaviy va respublika bosqichlarida Hakamlar hay’ati tarkibida ishtirok etgan oliy ta’lim tashkilotlarining mas’ul xodimlari mehnatga haq to‘lashning 5 barobari miqdorida bir martalik asosiy ish joylaridan rag‘batlantiriladi.

26. Festivalni tashkil etgan tashkilotchi (*mazkur nizomning 3-bandi*) mas’ul xodimlar vazirlikning oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan yoki asosiy ish joylaridan mehnatga haq to‘lashning 10 barobari miqdorida bir martalik rag‘batlantiriladi.

VI. Yakuniy qoidalar

27. Jamoalar tomonidan sahnalashtirilgan sahna asarlari nizom talablariga mos kelmagan hayosizlikni targ‘ib qiluvchi (*kiyinishi, turli xil milliylikimizga to‘g‘ri kelmagan uyatsiz so‘zlarni ishlatilishi va hokazo*) sahna asarlari ijro etilgan taqdirda Hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan spektakl jarayonida to‘xtatiladi va natijalari bekor qilinib tanlovdan chetlashtiriladi.

28. Sahnada, sahna madaniyati (*sahnada o‘zini tutishi, kiyinish va muomala madaniyati*)ga amal qilmagan jamoa a’zolariga Hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan dalolatnoma tuziladi hamda ushbu jamoa a’zosi bo‘lgan oliy ta’lim tashkiloti keyingi yilgi “Talabalar teatr studiyalari” Festivalida ishtirok etmaydi va mas’ul rahbarlariga chora ko‘riladi.

29. Davlat va nodavlat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari Festivalda homiylik qilishlari mumkin.

30. Festivalning hududiy, mintaqaviy va yakuniy bosqichida Hakamlar hay’ati a’zolarining xizmat safari bilan bog‘liq sarf-xarajatlar xodimning asosiy ish joyidan qoplanadi.